

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO‘JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI**

Zootexniya va qorako‘lchilik fakulteti

Qorako‘lchilik, hayvonlarni oziqlantirish va gigiena kafedrası

Qo‘ychilik va echkichilik fanidan

REFERAT

**Mavzu: Turli mahsuldorlikka mansub qo‘ylarning jussa (eksterer) tuzilishi,
ularni qismlari, tana o‘lchamlari, indekslarni nomlanishi va hisobga olishni
o‘rganish**

Bajardi: 313 - gurux talabasi Nortojieva S.

Tekshirdi: To‘xtaev O.

Samarqand - 2016 yil

Turli mahsuldorlikka mansub qo‘ylarning jussa (eksterer) tuzilishi, ularni qismlari, tana o‘lchamlari, indekslarni nomlanishi va hisobga olishni o‘rganish

Qo‘ylarning tana tuzilishini o‘rganishda ularning jussasining katta-kichikligi muhim ahamiyatga ega. Qo‘yning jussasi – uning tashqi gavdasining ko‘rinishidir. Masalan, qo‘ylarning jussasi ko‘pchiligida noksimon bo‘lib, qo‘chqorlarning tana vazni 55-65 kg, sovliqlarining vazni 40-45 kg bo‘ladi. Quloqlari yirik (hammasida ham bir xil bo‘la bermaydi), shohlari orqaga qaytgach (qo‘chqorlarida), sovliqlarni shohsiz, oyoqlari o‘rtacha uzunlikda bo‘lib, dumbasi dumaloq yirik ayrimlarida chigal bo‘ladi. Tuyoqlari baquvvat bo‘ladi.

Ekstererini aniqlash uchun quyidagi uslublar qo‘llaniladi:

- Ko‘z bilan chamalab ko‘rish
- Paypaslab, ushlab ko‘rish
- Ayrim tana qismlarini o‘lchash va indekslarini hisoblash
- Fotosuratini ko‘zda ko‘rib baholash

Hayvon tana o‘lchamlarini o‘lchash uchun amalda o‘lchov tayog‘i, sirkuli va lentasidan foydalaniladi.

Ekstererini o‘rganish bo‘yicha qo‘yilgan maqsadlarga qarab turli o‘lchovlar olinadi. Qo‘ychilikda ko‘pincha 9 ta o‘lchov olinadi.

Jadval-1

№	O‘lchovlar	Asbob qyo‘chiladigan nuqtalar	Kerakli asboblari
1	YAg‘ringacha balandlik	YAg‘rinning eng yuqori nuqtasidan er yuzasigacha	O‘lchov tayog‘i
2	Dumg‘azasigacha balandligi	Dumg‘azaning eng yuqori nuqtasidan ergacha	--
3	Gavdasining qiya uzunligi	Elka-kurak bo‘g‘imidan qo‘yning do‘mbog‘igacha	--
4	Ko‘krak chuqurligi	YAg‘rinning ko‘krakning orqa burchagiga urinma qilib, to‘sh suyagining pastki yuzasigacha	--

5	Ko'krak kengligi	Ko'krakning orqa burchagiga urinma qilib, kuraklar orqasigacha	--
6	Ko'krak aylanasi	Kurakning orqa burchagiga urinma qilib olingan tik chizik bo'ylab	O'lchov lentasi
7	Pocha aylanasi	Pocha ustki uchidan bir qismining pastidan	--
8	Boshining uzunligi	Quloq suprqlari asosini birlashtiradigan chiziqdan tumshug'ini uchigacha	O'lchov sirkuli
9	Peshonasining	Quloq suyaklarining asosidan o'lchanadi	Sirkul

Tana o'lchamlari qatorida tana indeksleri ham o'rganish va bunda bir tana o'lchovi, ikkinchi tana o'lchoviga taqqoslanib o'rganiladi. Qo'ylarning quyidagi tana indeksleri o'rganiladi:

$$1) \text{Uzunoyoqliligi} = \frac{\text{думғаза баландлиги} \times 100}{\text{яғрин баландлиги}}$$

$$2) \text{cho'ziqligi} = \frac{\text{гавдасининг қия узунлиги} \times 100}{\text{яғрин баландлиги}}$$

$$3) \text{Ko'krak indeksi} = \frac{\text{кўкрак кенглиги} \times 100}{\text{сағрисининг баландлиги}}$$

$$4) \text{Pishiqligi} = \frac{\text{думғаза баландлиги} \times 100}{\text{гавданинг қия узунлиги}}$$

$$5) \text{Suyakdorligi} = \frac{\text{пoча айланаси} \times 100}{\text{яғрин баландлиги}}$$

$$6) \text{Keng peshonalik} = \frac{\text{пешонасининг энг кенг жойи} \times 100}{\text{бoшининг узунлиги}}$$

$$7) \text{Katta boshlilik} = \frac{\text{бoшининг узунлиги} \times 100}{\text{яғрин баландлиги}}$$

$$8) \text{Salmoqdorligi} = \frac{\text{кўкрак айланаси} \times 100}{\text{яғрин баландлиги}}$$

Qo'ylarning konstitutsiya tipi deyilganda – ularning organizmining tashqi ko'rinishi, salomatligi, mahsuldorligi hamda hayot faoliyatini belgilab beradigan barcha shakllar yig'indisi, ya'ni biologik birlik tushuniladi. Konstitutsiya nasldan-naslga o'tadi, ammo organizmning rivojlanish davomida bir o'zgarishi mumkin. Mustahkam konstitutsiya qo'ylarning tanasi proporsional rivojlangan bo'lib, suyagi, qattiq va zich, muskullari yaxshi rivojlangan, terisi zich va sillik, jun qoplamida bir tolalar mavjud bo'lib, bu tipdagi qo'ylar hayotchan, mahsuldorligi jihatidan yuqoridir.

Dag'al konstitutsiyali qo'ylar – tanasi normal rivojlangan, boshi og'ir va katta, bo'g'imlari va suyaklari bo'rtib chiqqan, muskullari yaxshi rivojlanmagan, terisi og'ir, juni dag'al bo'lib, har xil qoplamdan tashkil topgan, mahsuldorligi jihatidan o'rta va past darajada turadi. Nozik konstitutsiyali qo'ylar – bu qo'ylarning jussasi kichik, suyaklari yupqa, engil, terisi juda yupqa, boshi qisqa, juni silliq (hvr xil zotlarda turlicha). Bu qo'ylar saqlanish sharoiti boshqa qo'ylarnikidan farq qilishi kerak. Bu qo'ylarning mahsulot ishlab chiqarishda unchalik talab darajada e'tibor berilmaydi, chunki olingan mahsuloti o'z harajatini qoplay olmaydi.

Zich konstitutsiya tipli qo'ylar – bu qo'ylarning tanasi o'rtacha formada bo'lib, suyaklari juda ham zich, muskullari quruq, yupqa va silliq terisi bo'ladi. Juni quyuq bo'lib, tolalari silliq va o'rtacha qaliklikda, yog' to'planishi ichki organlari va terisi sust rivojlangan. Bu qo'ylardan yuqori baholi jun olinadi.

Bo'sh konstitutsiyali qo'ylar – bu qo'ylarda teri ostki kletchatkasi juda yaxshi rivojlangan bo'lib, muskullari bo'sh bo'ladi. suyaklari sillik emas. Terisi qalin, jun tolasi, uzun bo'ladi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO‘JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI**

Zootexniya va qorako‘lchilik fakulteti

Qorako‘lchilik, hayvonlarni oziqlantirish va gigiena kafedrası

Qo‘ychilik va echkichilik fanidan

REFERAT

Mavzu: Mayin va yarim mayin junli qo‘y zotlarini o‘zlashtirish.

Bajardi: 313 - gurux talabasi Nortojieva S.

Tekshirdi: To‘xtaev O.

Samarqand - 2016 yil

Mayin va yarim mayin junli qo'y zotlarini o'zlashtirish

MDH qo'y zotlarining bir necha tiplari mavjud, bular o'zining qaysidir tomoni jihatdan bir-biridan farq qiladi. Bu qo'ylarning jun mahsulotiga ko'ra: mayin, yarim mayin, junli qo'y zotlariga bo'linadi. MDH da bulardan tashqari go'sht-yog', sut, po'stin va mo'ynabop teri beruvchi zot tiplari ham urchitiladi.

Mayin va yarim mayin zotli qo'ylar va ular tiplarining kelib chiqishi uzoq tarixga ega bo'lib, ayrim zotlarni hisobga olmaganda urchitiladigan zotlar qadimiy zot hisoblanadi.

Mayin junli qo'y zotlari jundor, jun-go'shtdor va go'sht-jundor yo'nalishdariga bo'linadi va bu qo'y zotlari mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha, yuqori o'rinlarda turadi.

Bu qo'ylarga 5 ta konstitutsiya tipi xos bo'lib, bulardan:

1. Mustahkam (g'o'zamoy)
2. Dag'al (oq-gul)
3. Nozik (nozikga va nimjon nozik) turlariga bo'linadi.

Mustahkam konstitutsiyali: bu qo'ylarning juni uzunligi o'rtacha 8-10 sm bo'ladi. bu qo'ylarning tanasi proporsional rivojlangan, qo'ylar harakatchan bo'ladi. Mustahkam konstitutsiyasi eng qimmatbaho mayin jun olinadi.

Bu qo'ylarning qo'zilarining og'irligi 4-6 kg bo'ladi. Jun qoplami shtopel shaklida bo'lib, har qirqimda o'rta hisobda 8-9 kg jun olinadi.

Dag'al konstitutsiyali qo'ylar. – bu qo'ylarning tana tuzilishi qo'pol bo'lib, tanasining a'zolari bir-biri nomunosib holda joylashgan, ya'ni suyaklarining bo'rtib chiqishi, boshlarining haddan tashqari katta ekanligi, terisining qalinligi bilan boshqa turlardan farq qiladi. Bu tipga mansub qo'ylarning juni 3 sinfga xos bo'lib, jun tolasi uzunligi 6-14 sm, o'rtacha 9 sm bo'ladi. Bu qo'ylarning qo'zilaridan kam baholi terilar olinadi. Chunki olingan terilarning guli yirik va ayrimlariniki ochiq shaklda bo'ladi. dag'al konstitutsiyali qo'y qo'zilarining og'irligi 6 kg va undan ortiq bo'ladi. Jun mahsuloti mustahkam konstitutsiya tuzilishga ega bo'lgan qo'ylarnikidan yuqori bo'ladi.

Nozik konstitutsiya tipli qo'ylar. Bu tipga xos mazkur qo'ylar 2 ta kichik tipga bo'linib:

1. Nozik
2. Qirriq

Nozikcha tipdagi qo'ylarning suyaklari silliq, terisi yumshoq va silliq, juni quyuk, lekin kalta jun tolalaridan iboratdir. Jun qoplami tarkibida oraliq va tivit tolalar mavjud.

Qirriq tipga xos qo'ylarning jussasi kichik, jun tolalari juda qisqa, ko'kraklarining chuqurligi va kengligi yuqoridagi turlarnikiga nisbatan past ko'rsatkichga ega. Bu tipga xos qo'ylarni juni kalta bo'lganligi sababli ayrim hollarda 2-chi marta qirqilmaydi.

Bu qo'ylardan olingan qo'zilar juda nozik bo'lib, teri sathi kichik terilarnikiga ayrim hollarda brak terilar qatoriga kiradi. Teri gullarining o'lchami mayda gullarga xosdir.

Qo'ylar qo'chqorlarining og'irligi 70-80 kg, qo'ylariniki 45-50 kg. YA'ni tug'ilgan qo'zilarining o'rtacha og'irligi 4-4,5 kg dir. Juni yiliga 2 marta qirqiladi. Bahor va kuz oylarida bo'lib, bahor oyidagi junning ko'lami kuz oyidagiga nisbatan ko'p bo'ladi.

Mayin junli qo'ylarni kelib chiqishiga mayin va jingalak junga bo'lgan talab asos bo'lib bu qo'ylar bizning eramizdan uch ming yil oldin ko'paytirilgan. Bu yunalishdagi qo'ylarni urchitilishiga yumshoq va yaxshi ob-xavo xamda iqlim sharoiti o'z ta'sirini o'tkazib kelgan va ilk bor bu qo'ylar Osiyo va g'arbiy Gruziya mintaqalarida vujudga kelgan. Qo'l davrida bu yo'nalishdagi qo'ylarning taraqqiy etishiga Gretsiya, Ispaniya kabi rivoj topgan davlatlar o'zining xissasini qo'shib zotlarni kelib chikishiga va takomillashtirishiga asos solgan. Bu davlatlardan qo'ylarni olib chiqishi yoki chetga sotilishi man etilgan bo'lib natijada ekskurian gvadelupo, paulyar, infontido va negreti kabi ingichka mayin junli qo'y zotlari yaratildi va ko'ylarni keyingi etapda dunyo bo'yicha taraqqiy etilishiga asos soldi.

Bu yo'nalishdagi qo'ylarni junlari tillaga tenglashtirilib kelingan, chunki ularni junidan turli issiq buyumlar tayyorlanib xalq e'tiborini qozongan.

Gerford universiteti professori Kleyst fikriga ko'ra Afrika va Ispaniyada yashagan mavr qabilalari «beni merinos» deb yuritilgan va bu qabiladagi urchitilayotgan qo'ylari esa beni merinos qo'ylari deb aytilgan.

Isnaniyaga esa bu qo'ylar Beris va Mudi fikrlariga ko'ra XVI - XVII asrda fineken qabilalari orqali keltirgan.

Keyinchalik tarakkiyot markazi Bolqon oroli davlatlariga o'tib bu qo'ylarni rivojiga Italianlar katta xissa qo'shgan. Italiyaliklar bu qo'ylarni xizmatchi qo'y deb tan olgan, xizmatchilarni esa mayrinus deb aytadilar. Mayrinus ko'li ostidagi qo'ylar merinos nomi bilan yuritiladi.

Eng katta yutuk merinos qo'ylarini taraqqiy etishida Sakson merinosi va Fransiyaning rembule kabi qo'y zotlarini kelib chikishidir. Bu qo'ylar butun dunyoga taraqqiy etib hozirgi qimmatbaxo jun beruvchi qo'y zotlarini vujudga kelganiga asos solgan. Bu yunalishni rivojiga hozirgi MDX davlatlarida Kuleshov P.N., Grushkin N.A., Mozaev P.D., Meritsalov I.A., Abozo' M.A., CHetverikov S.I., Drulev va boshqalarni mehnati singan.

Mayin junli qo'ylar O'zbekistonga xam keltirilgan va ular ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki bu qo'ylar bizning sharoitimizga ko'nikish qobiliyati juda sust, shu sababli ular maxalliy zotlar bilan chatishtirilgan va durugay qo'ylar olingan. Bu ish O'zbekiston Respublikasining chorvachilik ilmiy tekshirish institutining bir guruh olimlari YUldashev R., YUldashev A.YU., Topilskiy I.A., Kiyatkin P.F., Son YA.P., Uritskiy, Xaydarov M.X. va x.k. tomonidan Oxangaron, Parkent va Bo'stonlik tumanlari xo'jaliklarida olib borilgan va natijada Respublikada yangi go'sht-jundor yunalishi vujudga kelgan va krosbred sifatidagi jun beradi.

2. Mayin junli jundor yunalishidagi guruhga sovet, stavropol, gruzin, azerbaydjon va salsk merinosi kabi zotlari kiritilgan.

Sovet merinosi 1920-1952 yillarda Rossiya Federatsiyasini Evropa kismi tumanlaridagi Mozaev va Yangikavkaz maxalliy sovliqlari amerikaning rembule qo'chkori bilan chatishtirish natijasida olingan. Bu zotni qo'chqorlari va sovliqlari shoxsiz, junining tusi oq. Qo'chkorlarni tirik vazni 105-110 kg, junini

uzunligi 12-15 sm, miqdori esa 8-9 kg. Sovliqlarni vazni o'rtacha 60-65 kg junini uzunligi 10-15 sm; miqdori esa 3,6 - 4,2 kg. Bu qo'ylarni junining yo'g'onligi asosan 50-56 sifatga teng, qo'zilarini yangi tug'ilganidagi tirik vazni 3,5-4,5 kg, Serpushtligi bo'yicha xar 100 sovliqqa 110-115 qo'zi olinadi yoki 100-115 foizni tashkil etadi xozirgi kunda bu qo'y zoti Kavkaz, Dagiston, Qalmiq, Stavropol, Rostov va Qozog'iston Respublikasi xo'jaliklarida uchitilmoqda.

Stavropol zoti 1923-1950 yillarida Stavropol o'lkasini "Sovetskoe runo" nomli naslchilik zavodida yaratilgan. Bu zotni yaratilishida eng avvalo mazex va yangi Kavkaz zotlari o'zaro urchitilgan va undan olingan duragay avlod so'nggi etapda Lcherikani rembule qo'chqorlari bilan chatishtirilib bu zot vujudga kelgan. Qo'chqorlarini o'rtacha tirik vazni 100-115 kg qo'zi olinadi 14-19 kg; sovliqlarni tirik vazni 50-55 kg og'irligi 7-8 kg. Bu zotni junining uzunligi o'rta xisobda 82 sm tashkil etadi, yo'g'onligi bo'yicha esa asosan 64 sifatga tenglashtiriladi. Zotning serpushtligi 120-140% yoki 100 sovliqqa 10-140 qo'zi beradi. Bu zot xozirgi davrda SHimoliy Kavkaz va Volga bo'yi tumani xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Grozney zoti 1929-1951 yillarda Dog'istonning «CHervlyoniy bruny» davlat naslchilik zavodidagi urchitilayotgan mozaev va yagikavkaz zotlarni Avstraliya mayin junli qo'ylari bilan chatishtirilib, so'nggi etapda tanlash va saralash ishlarini yaxshilash natijasida yaratilgan.

Qo'chqorlarni o'rtacha tirik vazni 90-100 kg; jundorligi 10-15 kg; Sovliqlarning o'rtacha tirik vazni 45-50 kg; jundorligi esa 6-8 kg. Junlarini uzunligi o'rtacha 6-8 sm bulib yo'g'onligi buyicha 61 sifatga teng. Bu zotning serpushtligi 130-140% tashkil etadi. Bu yo'nalishga mansub qo'y zoti asosan Dog'iston, Stavropol, Qalmik va Astraxan viloyatlarini xo'jaliklarida urchitilmokda.

Azerbayjan tog'li merinosi 1932-1947 yillarda Qarabog' va SHamxar tumanidagi urchitilayotgan qo'ylarni askaniya va kavkaz zotli qo'chqorlari bilan chatishtirish natijasida yaratilgan. Qo'chqorlarni o'rtacha tirik vazni 80-90 kg, jundorligi 8-10 kg, sovliqlarni vazni 45-50 kg, jundorligi esa 4,5-5 kg. Junining

uzunligi 7,5-9 sm bo'lib yo'g'onligi esa 60-64 sifatga teng. Bu zotni serpushtligi 110-120% tashkil etadi. Azarbayjan viloyatining SHimxar tumani xo'jaliklarida urchitiladi.

Salsk zoti 1922-1950 yillarda Rostov viloyatini Budenuy nomidagi yilqichilik zavodidagi Mozaev va YAngikavkaz zotlarini Amerikaning rembule qo'chkorlari bilan chatishtirilishi natijasidagi olingan avlodlarni tanlash, saralash, oziklantirishini yaxshilash va o'zaro chatishtirish natijasida vujudga kelgan.

Qo'chqorlarning tirik vazni 90-100 kg, junini miqdori 12-14 kg, sovliqlarni vazni 45-50 kg, jundorligi 5,5-6 kg. Bu zotni junining uzunligi 7,5-9 sm, yo'g'onligi esa 64 sifatga teng. Serpushtligi o'rta xisobda 115-120% tashkil etadi. Bu zot asosan Rostov viloyatini Salsk tumani xo'jaliklarida urchitilmoqda.

3. Mayin junli jun-go'shtdor yunalishdagi guruhiga askaniya, kavkaz, oltay, baykalosti, qirg'iz, krasnoyarsk janubiy qozoqi, janubiy ural va shimoliy qozoqi kabi qo'y zotlari kiradi.

Askaniya zoti 1923-1935 yillarda Ukrainaning «Askaniya novo» nomli xo'jaligida mahalliy merinos qo'ylarini tanlash va saralash ishlarini amalga oshirib borish xamda keyinchalik ularni amerika rembule zoti qo'chqorlari bilan chatishtirish natijasida vujudga kelgan. Qo'chkorlarni o'rtacha tirik vazni 120-130 kg, jun qirqimi 16-17 kg; sovliqlari og'irligi 55-65 kg, jun qirqimi esa 7-8 kg. Bu zotning junini uzunligi 7-10 sm, yo'g'onligi esa 64 sifatga teng. Serpushtligi 125-130% tashkil etadi. Xozirgi davrda Ukraina Respublikasini janubiy viloyatlari xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Kavkaz zoti 1923-1936 yillarda Stavropol o'lkasini «Bolshevik» davlat xo'jaligidagi YAngikavkaz zotli sovliqlarini Amerika rembule qo'chqorlari bilan chatishtirish natijasida yaratilgan. Qo'chqorlarni tirik vazni 110-120 kg, jundorligi o'rtacha 10-15 kg. Sovliqlarni tirik vazni 50-60 kg bo'lib jundorligi esa 5-6 kg. Junining uzunligi 8,0 - 8,5 sm, yo'g'onligi bo'yicha 60-64 sifatga teng, serpushtligi eng baland bo'lib 160% tashkil etadi. Xozirgi davrda , bu zot asosan Kavkaz jumxuriyatlari xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Oltay zoti 1930-1948 yillarda Oltay o'lkasini «Rubsovsk» va «Strana

Sovetov» naslchilik xo‘jaliklaridagi urchitilayotgan maxalliy sibir mayin junli sovliqlarini Amerika rembule qo‘chqorlari bilan chatishtirish natijasida yaratilgan. Qo‘chqorlarni o‘rtacha tirik vazni 90-110 kg; jundorligi 10-13 kg. sovliqlarni vazni 50-60 kg, jundorligi 5-6 kg. Bu zotning junini uzunligi 9-10 sm, ingichkaligi 64 sifatga teng, serpushtligi esa 130-170% bo‘lib, Rossiya Federatsiyasini Oltoy o‘lkasi xo‘jaliklarida urchitilmoqda.

Baykalosti zoti 1936-1956 yillarda CHita viloyatdagi maxalliy dag‘al junli buryat zotini sovliqlarini sovet merinosi, oltoy, grozney va prekos zotlarini qo‘chqorlari bilan murakkab qayta chatishtirish natijasida yaratilgan. Qo‘chqorlarni tirik vazni 10 kg, jundorligi 10-14 kg; sovliqlarni vazni 50-60 kg, jundorligi 4-6 kg. Bu zotning junining uzunligi 7-9 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatga to‘g‘ri keladi, serpushtligi 115-120% tashkil etadi. Bu zotga mansub qo‘ylar asosan Rossiya Federatsiyasini CHita viloyati xo‘jaliklarida urchitilmoqda.

Qirg‘iz mayin junli jun-go‘shtdor qo‘y zoti 1932-1956 yillarda maxalliy dumbali qirg‘iz zotli sovliqlarini kavkaz, sibir merinosi, prekos, Vyurtemberg, groznen zotli qo‘chqorlari bilan qayta murakkab chatishtirish natijasida vujudga kelgan. Qo‘chqorlarni tirik vazni 90-100 kg, jundorligi 8-10 kg, sovliqlarni vazni 55-60 kg, jundorligi esa 4-4,5 kg. Junlarini uzunligi 7-8 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatga teng. Serpushtligi 125-130%. Bu zotga mansub qo‘ylar hozirgi davrda Qirg‘iziston va Tojikistonning ayrim tumanlarida urchitilmoqda.

Krasnoyarsk zoti 1926-1963 yillarda Krasnoyarsk o‘lkasidagi Uchumskiy va Minusinskiy xo‘jaliklarida urchitilayotgan dag‘al junli maxalliy sovliqlarini Amerika rembulesi, prekos, askaniya xamda groznen zotlari ko‘chqorlari bilan murakkab chatishtirib ularni duragaylarini tanlash va saralash ishlarini olib borilishini xamda oziqlantirishini yaxshilash natijasida olingan. Qo‘chqorlarni tirik vazni 100-110 kg, jundorligi 10-12 kg, sovliqlarni vazni 55-60 kg, jun qirqimi 4-6 kg. Junining uzunligi 8-8,5 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatga teng. Serpushtligi 130-140% tashkil etadi. Bu zot Rossiya Federatsiyasini Krasnoyarsk o‘lkasi xo‘jaliklarida urchitilmoqda.

Janubiy Qozoqi mayin junli jun-go‘shtdor zoti 1944-1966 yillarda Jambul,

CHimkent va Kizil-Oʻrda viloyatlari xoʻjaliklaridagi urchitilayotgan qozoqi dumbali sovlivlarini kavkaz, stavropol, groznen va oltoy zotlari qoʻchqorlari bilan qayta murakkab chatishtirish usulida olingan. Qoʻchqorlarni tirik vazni 80-100 kg, jundorligi 10-12 kg, sovliqlarni vazni 45-55 kg jundorligi esa 3,5-4 kg, junlarini uzunligi 7-9 sm. ingichkaligi esa 64 sifatga toʻgʻri keladi. Bu qoʻylarni serpushtligi 140-145% boʻlib asosan Qozogʻistonning Jambul, CHimkent va Kizil-Orda viloyatlari xoʻjaliklarida urchitilmoqda.

Janubiy Ural mayin junli jun-goʻsht yoʻnalishidagi zot 1948-1068 yillari Rossiya Federatsiyasini Orenburg viloyati xoʻjaliklarida urchitilayotgan dagʻal junli sovliqlarni oldin prekos zotini qoʻchqorlari bilan soʻng esa ularni urgʻochi duragaylarini kavkaz, oltoy, stavropol, groznen va yangi kavkaz zotli qoʻchqorlari bilan murakkab chatishtirish natijasida vujudga kelgan. Qoʻchqorlarni vazni 80-90 kg, jundorligi 10-12 kg, sovliqlarni vazii 45-50 kg, jundorligi esa 4,5-5 kg, junlarni uzunligi 8-10 sm, ingichkaligi boʻyicha 64 sifatga teng. Bu zotning serpushtligi 115-125% boʻlib asosan Rossiya Federatsiyasini Orenburg viloyati xoʻjaliklarida koʻpaytirilmoqda.

SHimoliy qozoqi mayin junli jun-goʻshtdor zoti Qozogʻiston Respublikasining Pavlodar, Semipalatinsk va Kustanay viloyatlaridagi YAngikavkaz, Mozaev qoʻylari va maxalliy dagʻal junli qoʻylarini bir-biri bilan chatishtirish natijasida yaratilgan boʻlib 1976 yilda zot deb tasdiqlangan. qoʻchqorlarni tirik vazni 100-110 kg, jundorligi 13-15 kg, sovliqlarning vazni esa 55-60 kg, jundorligi 6-7 kg, junlarini uzunligi 9,0 - 9,5 sm tashkil etadi, yoʻgʻonligi esa 64 sifatga teng boʻlib tolasining toza chiqimi 43-45%. Bu zotning serpushtligi 110-120%. Xozirgi davrda bu zot asosan Kozogʻiston Respublikasining Pavlodar, Kustanay va Semipalatinsk viloyatlari xoʻjaliklarida urchitilib kelinmoqda.

4. Mayin junli goʻsht-jundor yoʻnalishi guruhiga prekos, qozoqi mayin junli va arxaromerinosi, vyatskiy, dagiston, gruzin va volgagrad kabi zotlari kiradi.

Prekos zoti XIX asrni oxiri va XX asrni boshlarida Fransiya xududida urchitilayotgan rembule zotli qoʻchqorlarini ingliz leyster zotli sovlivlari bilan chatishtirish natijasida yaratildi. Bu zot juda tez etiladi, qoʻchqorlarni vazni 100-

110 kg, jundorligi esa 8-14 kg, sovliqlarini vazni 55-60 kg, jundorligi 3,5-4,5 kg. Jun tolasini uzunligi 8-10 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatni tashkil etadi. Serpushtligi 125- 135%. Bu zot Rossiya Federatsiyaning Kursk, Bryansk, Voronej, Omsk, Orenburg, Krasnoyarsk viloyatlarida xamda Ukraina va Belorussiya xo‘jaliklarida ko‘paytirilmoqda.

Qozoqi mayin junli go‘sh-tjundor zoti 1931-1946 yillarda maxalliy qozoqi dumbali sovliqlarini prekos, askaniya, altay, kavkaz va groznen zotidagi qo‘chqorlari bilan murakkab chatishtirish natijasida olingan. Bu zotning asosiy kelib chikishi Alma-Ata viloyati xo‘jaliklaridir. Qo‘chqorlarini tirik vazni 90-120 kg, sovliqlarni vaznn esa 58-65 kg, junlarini miqdori qo‘chqorlarnikida 10-12 kg, sovliqlarni 4,5-5 kg, junlarini uzunligi 8-10 sm, yo‘g‘onligi esa 60-64 sifatga teng, serpushtligi 120-130%. Bu zot xozirgi davrda Alma-Ata viloyati xo‘jaliklarida ko‘paytirilib kelinmoqda.

Qozoq arxaromerinos zoti 1934-1950 yillarda Dog‘istonning sharkey tog‘li tumanlarida turlaroro chatishtirish igijasida vujudga kelgan (maxalliy mayin junli sovliqlarga yovvoyi arxarlarni urug‘i qo‘yilgan). Qo‘chqorlarni tirik vazni 90-115 kg, jundorligi 7-8 kg, sovliqlarni tirik vazni 55-65 kg, jundorligi 3,2-3,7 kg, junini uzunligi 7-12 sm, tolasining yo‘g‘onligi 64 sifatga teng. Bu qo‘ylar juda chidamli sharoitga tez ko‘nikadi xamda kam talabchan, serpushtligi 125-130% bo‘lib asosan Alma-Ata, Karaganda, Pavlodor viloyatlari xo‘jaliklarida ko‘paytiriladi.

Vyatskiy zoti 1956-1996 yillarida Rossiya Federatsiyasini Kirov viloyatini Nolinsk tumani va Gorkiy viloyatini Gorodetskiy tumani xo‘jaliklarida maxalliy shimoliy kalta dumli dag‘al junli sovliqlarni prekos va rembule qo‘chqorlari bilan chatishtirish natijasida olingan bo‘lib qo‘chqorlarni tirik vazni 80-85 kg, jun qirqimi 5,5-6 kg, sovliqlarni vazni 55-60 kg jundorligi 3-3,5 kg. Bu zotni jun tolasini uzunligi 8-9 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatga tengdir, serpushtligi 135-145% bo‘lib Kirov va Gorkiy viloyatlari xo‘jaliklarida urchitilmoqda.

Gruzin mayin junli, yog‘dor dumli go‘sh-tjundor zoti 1939-1959 yillarda Gruziyani maxalliy dag‘al dumli sovliqlarinn sovet va kavkaz mayin junli qo‘chqorlari bilan qayta chatishtirish natijasida olingan. Qo‘chqorlarni tirik vazni

70-80 kg, jundorligi 6-8 kg, sovliqlari vazni 45-50 kg, jundorligi esa 3,5-4 kg, tabiiy uzunligi 7-9 sm bo'lib yo'g'onligi esa 60-64 sifatga teng, serpushtligi 110-115% bo'lib Gruzuya xo'jaliklarida ko'paytirilmoqda.

Dog'iston mayin junli go'sht-jundor zoti 1928-1950 yillarda maxalliy dag'al junli gubinsk sovliqlarini vyurtemberg qo'chqorlari bilan chatishtirish natijasida olingan. Qo'chqorlarni tirik vazni 80-90 kg, jundorligi 5-6 kg, sovliqlarni vazni 50-60 kg, jundorligi 3-3,5 kg, tolasini uzunligi 8-10 sm, ingichkaligi esa 60 sifatga teng, serpushtligi 130-135% tashkil etadi va Dog'iston xo'jaliklarida ko'paytirilmoqda. Volgograd zoti 1932-1978 yillarda mahalliy dag'al junli sovliqlari yangikavkaz va prekos zotlari qo'chqorlaridan olingan duragay avlodlari kavkaz va grozniy zotlarini qo'chqorlari bilan qayta murakkab chatishtirilishi natijasida yaratilgan. Qo'chqorlarni tirik vazni 90-125 kg, jun qirqimi 12-14 kg, sovliqlarni vazni 50-60 kg, jundorligi 5-6 kg, tolasini uzunligi 8-9 sm, ingichkaligi 60-64 sifatga teng, serpushtligi esa 130-160% bo'lib asosan Rossiya federatsiyasini Volgograd viloyati xo'jaliklarida ko'paytiriladi.

O'zini tekshirish uchun savollar

1. Qo'y junining guruhlari qaysilar va ta'rif bering?
2. Mainy va yarim mayin junning bir-biridan farqi nimadan iborat? Bu junlar qanday qo'y zotlaridan olinadi?
3. Bir hil qoplamli va har xil qoplamli jun deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi jadvalni mavzu asosida to'ldiring

Bir hil va har xil qoplamli junga qisqacha xarakteristika bering	Tola turlariga ta'rif bering	Mayin va yarim mayin junlar qaysi qo'y zotidan olinadi

12-mavzu: YArim dag'al va dag'al junli qo'y zotlarin o'rganish

Darsning maqsadi. Mustaqil Hamdo'stlik Respublikalarida va O'zbekistonda urchitilayotgan va yarim dag'al va dag'al qo'y zotlarini kelib chiqish tarixi.

Dars uchun kerakli jihozlar. Urchitiladigan qo'y turlari, avlodlari tulumlarhamda naslchilik kitoblari va bu qo'y zotlarining suratlari, hamda albomlari.

Darsning mazmuni: YArim dag'al va dag'al qo'y zotlarini bir necha tiplari mavjud va bu tiplar o'zini qaysi bir ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farqlanadi. SHu boisdan bu qo'ylar jun mahsuldorligi bo'yicha qo'ydagicha bo'linadi. YArim dag'al va dag'al jun beruvchi zotlar bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda va MDHdagi mavjud turlarning kelib chiqishi uzoq tarixga ega bo'lib, ayrim zotlarni hisobga olmaganda, respublikamizda urchitiladigan zotlar qadimiy zot hisoblanadi.

Qorako'l qo'y

Qorako'l qo'yi O'rta Osiyo – aynan O'zbekistonning tarixiy qo'y zoti bo'lib, er yuzidagi mavjud qo'y zotlari ichida mahsuldorilk ko'rsatkichi bo'yicha, ya'ni terisi bo'yicha yuqori o'rinlardan birida turadi.



Bu qo'ylarga 3 ta konstitutsii tipi xos bo'lib, bulardan:

1. Mustahkam (g'o'zamoy)
2. Dag'al (oq-gul)
3. Nozik (nozikga va nimjon nozik) turlariga bo'linadi.

Mustahkam konstitutsiyali: bu qo'ylarning juni uzunligi (4-14 sm) bo'lib, o'rtacha 8 sm bo'ladi. Bu qo'ylarning tanasi proporsional rivojlangan, qo'ylar juda harakatchan bo'ladi. mustahkam konstitutsiyasi qo'ylardan eng qimmatbaho terilar, ya'ni guli loviyasimon va qalamigulli qo'zi terilari olinadi.

Bu qo'ylarning qo'zilarining og'irligi 4-6 kg bo'ladi. jun qoplami kositsali bo'lmb, har qirqimda 1,5-2,5 jun olinadi.

Dag'al konstitutsiyali qo'ylar. – bu qo'ylarning tana tuzilishi qo'pol bo'lib, tanasining a'zolari bir-biri nomunosib holda joylashgan, ya'ni suyaklarining bo'rtib chiqishi, boshlarining haddan tashqari katta ekanligi, terisining qalinligi bilan boshqa turlardan farq qiladi. Bu tipga mansub qo'ylarning jumi 3 sinfga xos bo'lib, jumi tolasi uzunligi 6-14 sm, o'rtacha 9 sm bo'ladi. Bu qo'ylarning qo'zilaridan kam baholi terilar olinadi. Chunki olingan terilarning guli yirik va ayrimlariniki ochiq shaklda bo'ladi. dag'al konstitutsiyali qo'y qo'zilarining og'irligi 6 kg va undan ortiq bo'ladi. Jumi mahsuloti mustahkam konstitutsiya tuzilishga ega bo'lgan qo'ylarnikidan yuqori bo'ladi.

Nozik konstitutsiya tipli qo'ylar. Bu tipga xos mazkur qo'ylar 2 ta kichik tipga bo'linib:

3. Nozik
4. Qirriq

Nozikcha tipdagi qo'ylarning suyaklari silliq, terisi yumshoq va silliq, jumi quyuk, lekin kalta jumi tolalaridan iboratdir. Jumi qoplami tarkibida oraliq va tivit tolalar mavjud.

Qirriq tipga xos qo'ylarning jussasi kichik, jumi tolalari juda qisqa, ko'kraklarining chuqurligi va kengligi yuqoridagi turlarnikiga nisbatan past ko'rsatkichga ega. Bu tipga xos qo'ylarni jumi kalta bo'lganligi sababli ayrim hollarda 2-chi marta qirqilmaydi.

Bu qo'ylardan olingan qo'zilar juda nozik bo'lib, teri sathi kichik terilarnikiga ayrim hollarda brak terilar qatoriga kiradi. Teri gullarining o'lchami mayda gullarga xosdir.

Qo'chqorlarining og'irligi 70-80 kg, qo'ylariniki 45-50 kg. YA'ni tug'ilgan qo'zilarining o'rtacha og'irligi 4-4,5 kg dir. Jumi yiliga 2 marta qirqiladi. Bahor va kuz oylarida bo'lib, bahor oyidagi jumnning ko'lami kuz oyidagiga nisbatan ko'p bo'ladi.

O'zbekiston go'shtdor yog'dor qo'y zoti. Bu qo'y zotlarining ichida eng yirigi hisoblanib, bu zotlarning kelib chiqishi qadimiy tarixni o'z ichiga olib, Tojikiston

respublikasidan mahalliy dumbali qo'ylarni xalq seleksiyasi orqali keltirib chiqarilgan.

Bu qo'ylarning ko'pchiligi mustahkam tipga xos bo'lib, qo'chqorlarining o'rtacha og'irligi 135-145 kg, yiriklariniki 160-190 kg. Qo'ylarning og'irligi 70-80, yiriklariniki 100-120 kg tug'ilgan qo'zilarining o'rtacha og'irligi 5-7 kg. Bu qo'ylarning serpushtligi 100 ta qo'yga 110-120 ta qo'zi to'g'ri keladi.

Qo'ylarning dumbasining og'irligi 15-25 kg, ayrim hollarda 35-45 kg ni tashkil etadi.

Juni dag'al bo'lib, tarkibida 40-70% tivit, 13-30% oraliq tola, 18-38% qiltiq, o'lik tolalar mavjud.


O'rtacha jun qirqimi 1,5-2 kg, junining chiqimi 60-70% ni tashkil etadi.

Bugungi kunda eng yirik mahsuldorligi bo'yicha yuqori o'rinda turadigan hisori qo'ylari "Hisor" naslchilik zavodida ko'paytirilmoqda (Tojikiston Respublikasida va O'zbekiston Respublikasida "Boysun" naslchilik zavodida). Go'shtdor yog' qo'y zotiga jaydari qo'y zoti ham kiradi.

Siroji – tojik zotlari

Siroji qo'y zoti Turkmanistonda xalq seleksiya tomonidan chiqarilgan bo'lib, go'sht va jun mahsuloti bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega. Siroji qo'ylarning qo'ychilik mustahkam konstitutsiya tuzilishiga ega bo'lib, suyaklari mustahkam va yaxshi rivojlangan, ko'kragi keng va chuqur, orqa qismi to'g'ri va enli, qo'chqorlarining og'irligi 80-85 kgni, sovliq qo'ylarniki 55-60 kg ni tashkil etadi.

Tug'ilgan qo'zilarining og'irligi 4,5-5,5 kg bo'ladi. bu zotning juni tarkibida tiviti bo'lib, jun qoplami 56-75% ni tashkil etadi. tivitning uzunligi 6-8 sm, jun qoplamida 4-18% qiltiq tola bor. Jun chiqimi 55-60%, junning rangi oq, yaltiroqligi yaxshi. Siroji qo'yining jun qirqimi bir qirqimda 3,5-4 kg ni tashkil etadi.



Tojik qo'y zoti

Bu zot 1947-1963-yillarda Tojikistonning Dagana-KIIKS tajriba xo'jaligida chiqarilgan.

Tojik qo'y mustahkam konstitutsiyaga ega bo'lib, dumbasi ko'tarilgan, qo'chqorlarining og'irligi 120-130 kg, yiriklarniki 160 kg. Qo'ylarining o'rtacha og'irligi 90-120 kg. Bu qo'ylarning juni yarim dag'al jun bo'lib, rangi oq, yaltiroqligi kuchli. Tivitining uzunligi 10-11 sm, jun chiqimi 65-70%. Bu qo'y zotidan O'zbekiston respublikasida jaydari qo'ylar va ular ustida seleksiya ishlarini olib borishda foydalanilmoqda.

Jaydari qo'y zoti

O'zbekiston go'shtdor-yog'dor qo'y zotiga mansub bo'lib, mahsuldorligi bo'yicha Hitori qo'yga yaqin turadi. Tanasi mutanosib rivojlangan. Suyaklari qattiq va mustahkam.

Bu qo'ylarning tusi qora, jigar-qo'ng'ir va ayrim hollarda oq rangda bo'ladi. Qo'chqorlarining og'irligi 70-80 kg. Qo'ylariniki 50-60 kg.



Jun qoplamida tivit mavjud bo'lib, 45-60% tivit, 7-18% oraliq tola, 20-26% qiltiq, 9-16 % o'lik tolalar mavjud.

Jun tolasining uzunligi 8-11 sm. Jun qoplami kokil tuzilishshga ega. Jaydari qo'yining mahsuldor zotlari Samarqand, Toshkent viloyatlarining naslchilik xo'jaliklarida etishtirilmoqda.

Mayin va yarim mayin junli qo'y zotlarini o'zlashtirish

Darsning maqsadi: Talabalarni mayin va yarim mayin qo'y zotlarini ta'rifi bilan tanishish.

Dars uchun kerakli jihozlar: Naslchilik kitoblari qo'y zotlarini suratlari, albomlari, diafilm.

Darsning mazmuni: MDH qo'y zotlarining bir necha tiplari mavjud, bular o'zining qaysidir tomoni jihatdan bir-biridan farq qiladi. Bu qo'ylarning jun

mahsulotiga ko'ra: mayin, yarim mayin, junli qo'y zotlariga bo'linadi. MDH da bulardan tashqari go'sht-yog', sut, po'stin va mo'ynabop teri beruvchi zot tiplari ham urchitiladi.

Mayin va yarim mayin zotli qo'ylar va ular tiplarining kelib chiqishi uzoq tarixga ega bo'lib, ayrim zotlarni hisobga olmaganda urchitiladigan zotlar qadimiy zot hisoblanadi.

Mayin junli qo'y zotlari jundor, jun-go'shtdor va go'sht-jundor yo'nalishdariga bo'linadi va bu qo'y zotlari mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha, yuqori o'rinlarda turadi.

Bu qo'ylarga 5 ta konstitutsiya tipi xos bo'lib, bulardan:

4. Mustahkam (g'o'zamoy)

5. Dag'al (oq-gul)

6. Nozik (nozikga va nimjon nozik) turlariga bo'linadi.

Mustahkam konstitutsiyali: bu qo'ylarning juni uzunligi o'rtacha 8-10 sm bo'ladi. bu qo'ylarning tanasi proporsional rivojlangan, qo'ylar harakatchan bo'ladi. Mustahkam konstitutsiyasi eng qimmatbaho mayin jun olinadi.

Bu qo'ylarning qo'zilarining og'irligi 4-6 kg bo'ladi. Jun qoplami shtopel shaklida bo'lib, har qirqimda o'rta hisobda 8-9 kg jun olinadi.

Dag'al konstitutsiyali qo'ylar. – bu qo'ylarning tana tuzilishi qo'pol bo'lib, tanasining a'zolari bir-biri nomunosib holda joylashgan, ya'ni suyaklarining bo'rtib chiqishi, boshlarining haddan tashqari katta ekanligi, terisining qalinligi bilan boshqa turlardan farq qiladi. Bu tipga mansub qo'ylarning juni 3 sinfga xos bo'lib, jun tolasi uzunligi 6-14 sm, o'rtacha 9 sm bo'ladi. Bu qo'ylarning qo'zilaridan kam baholi terilar olinadi. Chunki olingan terilarning guli yirik va ayrimlariniki ochiq shaklda bo'ladi. dag'al konstitutsiyali qo'y qo'zilarining og'irligi 6 kg va undan ortiq bo'ladi. Jun mahsuloti mustahkam konstitutsiya tuzilishga ega bo'lgan qo'ylarnikidan yuqori bo'ladi.

Nozik konstitutsiya tipli qo'ylar. Bu tipga xos mazkur qo'ylar 2 ta kichik tipga bo'linib:

5. Nozik

6. Qirriq

Nozikcha tipdagi qo'ylarning suyaklari silliq, terisi yumshoq va silliq, juni quyuq, lekin kalta jun tolalaridan iboratdir. Jun qoplami tarkibida oraliq va tivit tolalar mavjud.

Qirriq tipga xos qo'ylarning jussasi kichik, jun tolalari juda qisqa, ko'kraklarining chuqurligi va kengligi yuqoridagi turlarnikiga nisbatan past ko'rsatkichga ega. Bu tipga xos qo'ylarni juni kalta bo'lganligi sababli ayrim hollarda 2-chi marta qirqilmaydi.

Bu qo'ylardan olingan qo'zilar juda nozik bo'lib, teri sathi kichik terilarnikiga ayrim hollarda brak terilar qatoriga kiradi. Teri gullarining o'lchami mayda gullarga xosdir.

Qo'ylar qo'chqorlarining og'irligi 70-80 kg, qo'ylariniki 45-50 kg. YA'ni tug'ilgan qo'zilarining o'rtacha og'irligi 4-4,5 kg dir. Juni yiliga 2 marta qirqiladi. Bahor va kuz oylarida bo'lib, bahor oyidagi junning ko'lami kuz oyidagiga nisbatan ko'p bo'ladi.

Mayin junli qo'ylarni kelib chiqishiga mayin va jingalak junga bo'lgan talab asos bo'lib bu qo'ylar bizning eramizdan uch ming yil oldin ko'paytirilgan. Bu yunalishdagi qo'ylarni urchitilishiga yumshoq va yaxshi ob-xavo xamda iqlim sharoiti o'z ta'sirini o'tkazib kelgan va ilk bor bu qo'ylar Osiyo va g'arbiy Gruziya mintaqalarida vujudga kelgan. Qo'l davrida bu yo'nalishdagi qo'ylarning taraqqiy etishiga Gretsiya, Ispaniya kabi rivoj topgan davlatlar o'zining xissasini qo'shib zotlarni kelib chikishiga va takomillashtirishiga asos solgan. Bu davlatlardan qo'ylarni olib chiqishi yoki chetga sotilishi man etilgan bo'lib natijada ekskurian gvadelupo, paulyar, infontido va negreti kabi ingichka mayin junli qo'y zotlari yaratildi va ko'ylarni keyingi etapda dunyo bo'yicha taraqqiy etilishiga asos soldi.

Bu yo'nalishdagi qo'ylarni junlari tillaga tenglashtirilib kelingan, chunki ularni junidan turli issiq buyumlar tayyorlanib xalq e'tiborini qozongan.

Gerford universiteti professori Kleyst fikriga ko'ra Afrika va Ispaniyada yashagan mavr qabilalari «beni merinos» deb yuritilgan va bu qabiladagi urchitilayotgan qo'ylari esa beni merinos qo'ylari deb aytilgan.

Isnaniyaga esa bu qo'ylar Beris va Mudi fikrlariga ko'ra XYI - XYII asrda fineken qabilalari orqali keltirgan.

Keyinchalik tarakkiyot markazi Bolqon oroli davlatlariga o'tib bu qo'ylarni rivojiga Italianlar katta xissa qo'shgan. Italiyaliklar bu qo'ylarni xizmatchi qo'y deb tan olgan, xizmatchilarni esa mayrinus deb aytadilar. Mayrinus ko'li ostidagi qo'ylar merinos nomi bilan yuritiladi.

Eng katta yutuk merinos qo'ylarini taraqqiy etishida Sakson merinosi va Fransiyan rembule kabi qo'y zotlarini kelib chikishidir. Bu qo'ylar butun dunyoga taraqqiy etib hozirgi qimmatbaxo jun beruvchi qo'y zotlarini vujudga kelganiga asos solgan Bu yunalishni rivojiga hozirgi MDX davlatlarida Kuleshov P.N., Grushkin N.A., Mozaev P.D. Meritsalov I.A., Abozo' M.A., CHetverikov S.I. Drulev va boshqalarni mehnati singan.

Mayin junli qo'ylar O'zbekistonga xam keltirilgan va ular ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki bu qo'ylar bizning sharoitimizga ko'nikish qobiliyati juda sust, shu sababli ular maxalliy zotlar bilan chatishtirilgan va durugay qo'ylar olingan. Bu ish O'zbekistan Respublikasining chorvachilik ilmiy tekshirish institutining bir guruh olimlari YUldashev R., YUldashev A.YU., Topilskiy I.A., Kiyatkin P.F., Son YA.P., Uritskiy, Xaydarov M.X. va x.k. tomonidan Oxangaron, Parkent va Bo'stonlik tumanlari xo'jaliklarida olib borilgan va natijada Respublikada yangi go'sht-jundor yunalishi vujudga kelgan va krosbred sifatidagi jun beradi

2.Mayin junli jundor yunalishidagi guruxga sovet, stavropol, gruzin, azerbaydjon va salsk merinosi kabi zotlari kiritilgan.

Sovet merinosi 1920-1952 yillarda Rossiya Federatsiyasini Evropa kismi tumanlaridagi Mozaev va YAngikavkaz maxalliy sovliqlari amerikasi rembule qo'chkori bilan chatishtirish natijasida olingan. Bu zotni qo'chqorlari va sovliqlari shoxsiz, junining tusi oq. Qo'chkorlarni tirik vazni 105-110 kg, junini uzunligi 12-15 sm, miqdori esa 8-9 kg. Sovliklarni vazni o'rtacha 60-65 kg junini uzunligi 10-15 sm; miqdori esa 3,6 - 4,2 kg. Bu qo'ylarni junining yo'g'onligi asosan 50-56 sifatga teng, qo'zilarini yangi tug'ilganidagi tirik vazni 3,5-4,5 kg,

Serpushtligi bo'yicha xar 100 sovliqqa 110-115 qo'zi olinadi yoki 100-115 foizni tashkil etadi xozirgi kunda bu qo'y zoti Kavkaz, Dagiston, Qalmiq, Stavropol, Rostov va Qozog'iston Respublikasi xo'jaliklarida uchitilmoqda.

Stavropol zoti 1923-1950 yillarida Stavropol o'lkasini "Sovetskoe runo" nomli naslchilik zavodida yaratilgan. Bu zotni yaratilishida eng avvalo mazex va yangi Kavkaz zotlari o'zaro urchitilgan va undan olingan duragay avlod so'nggi etapda Lcherikani rembule qo'chqorlari bilan chatishtirilib bu zot vujudga kelgan. Qo'chqorlarini o'rtacha tirik vazni 100-115 kg qo'zi olinadi 14-19 kg; sovliqlarni tirik vazni 50-55 kg og'irligi 7-8 kg. Bu zotni junining uzunligi o'rta xisobda 82 sm tashkil etadi, yo'g'onligi bo'yicha esa asosan 64 sifatga tenglashtiriladi. Zotning serpushtligi 120-140% yoki 100 sovliqqa 10-140 qo'zi beradi. Bu zot xozirgi davrda SHimoliy Kavkaz va Volga bo'yi tumani xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Grozney zoti 1929-1951 yillarda Dog'istonning «CHervlyoniy bruny» davlat naslchilik zavodidagi urchitilayotgan mozaev va yagikavkaz zotlarni Avstraliya mayin junli qo'ylari bilan chatishtirilib, so'nggi etapda tanlash va saralash ishlarini yaxshilash natijasida yaratilgan.

Qo'chqorlarni o'rtacha tirik vazni 90-100 kg; jundorligi 10-15 kg; Sovliqlarning o'rtacha tirik vazni 45-50 kg; jundorligi esa 6-8 kg. Junlarini uzunligi o'rtacha 6-8 sm bulib yo'g'onligi buyicha 61 sifatga teng. Bu zotning serpushtligi 130-140% tashkil etadi. Bu yo'nalishga mansub qo'y zoti asosan Dog'iston, Stavropol, Qalmik va Astraxan viloyatlarini xo'jaliklarida urchitilmokda.

Azerbayjan tog'li merinosi 1932-1947 yillarda Qarabog' va SHamxar tumanidagi urchitilayotgan qo'ylarni askaniya va kavkaz zotli qo'chqorlari bilan chatishtirish natijasida yaratilgan. Qo'chqorlarni o'rtacha tirik vazni 80-90 kg, jundorligi 8-10 kg, sovliqlarni vazni 45-50 kg, jundorligi esa 4,5-5 kg. Junining uzunligi 7,5-9 sm bo'lib yo'g'onligi esa 60-64 sifatga teng. Bu zotni serpushtligi 110-120% tashkil etadi. Azarbayjan viloyatining SHimxar tumani xo'jaliklarida urchitiladi.

Salsk zoti 1922-1950 yillarda Rostov viloyatini Budenuy nomidagi yilqichilik zavodidagi Mozaev va YAngikavkaz zotlarini Amerikaning rembule qo'chkorlari bilan chatishtirilishi natijasidagi olingan avlodlarni tanlash, saralash, oziklantirishini yaxshilash va o'zaro chatishtirish natijasida vujudga kelgan.

Qo'chqorlarning tirik vazni 90-100 kg, junini miqdori 12-14 kg, sovliqlarni vazni 45-50 kg, jundorligi 5,5-6 kg. Bu zotni junining uzunligi 7,5-9 sm, yo'g'onligi esa 64 sifatga teng. Serpushtligi o'rta xisobda 115-120% tashkil etadi. Bu zot asosan Rostov viloyatini Salsk tumani xo'jaliklarida urchitilmoqda.

3. Mayin junli jun-go'shtdor yunalishdagi guruhiga askaniya, kavkaz, oltay, baykalosti, qirg'iz, krasnoyarsk janubiy qozoqi, janubiy ural va shimoliy qozoqi kabi qo'y zotlari kiradi.

Askaniya zoti 1923-1935 yillarda Ukrainaning «Askaniya novo» nomli xo'jaligida mahalliy merinos qo'ylarini tanlash va saralash ishlarini amalga oshirib borish xamda keyinchalik ularni amerika rembule zoti qo'chqorlari bilan chatishtirish natijasida vujudga kelgan. Qo'chqorlarni o'rtacha tirik vazni 120-130 kg, jun qirqimi 16-17 kg; sovliqlari og'irligi 55-65 kg, jun qirqimi esa 7-8 kg. Bu zotning junini uzunligi 7-10 sm, yo'g'onligi esa 64 sifatga teng. Serpushtligi 125-130% tashkil etadi. Xozirgi davrda Ukraina Respublikasini janubiy viloyatlari xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Kavkaz zoti 1923-1936 yillarda Stavropol o'lkasini «Bolshevik» davlat xo'jaligidagi YAngikavkaz zotli sovliqlarini Amerika rembule qo'chqorlari bilan chatishtirish natijasida yaratilgan. Qo'chqorlarni tirik vazni 110-120 kg, jundorligi o'rtacha 10-15 kg. Sovliqlarni tirik vazni 50-60 kg bo'lib jundorligi esa 5-6 kg. Junining uzunligi 8,0 - 8,5 sm, yo'g'onligi bo'yicha 60-64 sifatga teng, serpushtligi eng baland bo'lib 160% tashkil etadi. Xozirgi davrda , bu zot asosan Kavkaz jumxuriyatlari xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Oltay zoti 1930-1948 yillarda Oltay o'lkasini «Rubsovsk» va «Strana Sovetov» naslchilik xo'jaliklaridagi urchitilayotgan maxalliy sibir mayin junli sovliqlarini Amerika rembule qo'chqorlari bilan chatishtirilish natijasida yaratilgan. Qo'chqorlarni o'rtacha tirik vazni 90-110 kg; jundorligi 10-13 kg.

sovliqlarni vazni 50-60 kg, jundorligi 5-6 kg. Bu zotning junini uzunligi 9-10 sm, ingichkaligi 64 sifatga teng, serpushtligi esa 130-170% bo'lib, Rossiya Federatsiyasini Oltoy o'lkasi xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Baykalosti zoti 1936-1956 yillarda CHita viloyatdagi maxalliy dag'al junli buryat zotini sovliqlarini sovet merinosi, oltoy, grozney va prekos zotlarini qo'chqorlari bilan murakkab qayta chatishtirish natijasida yaratilgan. Qo'chqorlarni tirik vazni 10 kg, jundorligi 10-14 kg; sovliqlarni vazni 50-60 kg, jundorligi 4-6 kg. Bu zotning junining uzunligi 7-9 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatga to'g'ri keladi, serpushtligi 115-120% tashkil etadi. Bu zotga mansub qo'ylar asosan Rossiya Federatsiyasini CHita viloyati xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Qirg'iz mayin junli jun-go'shtdor qo'y zoti 1932-1956 yillarda maxalliy dumbali qirg'iz zotli sovliqlarini kavkaz, sibir merinosi, prekos, Vyurtemberg, groznen zotli qo'chqorlari bilan qayta murakkab chatishtirish natijasida vujudga kelgan. Qo'chqorlarni tirik vazni 90-100 kg, jundorligi 8-10 kg, sovliqlarni vazni 55-60 kg, jundorligi esa 4-4,5 kg. Junlarini uzunligi 7-8 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatga teng. Serpushtligi 125-130%. Bu zotga mansub qo'ylar xozirgi davrda Qirg'iziston va Tojikistonning ayrim tumanlarida urchitilmoqda.

Krasnoyarsk zoti 1926-1963 yillarda Krasnoyarsk o'lkasidagi Uchumskiy va Minusinskiy xo'jaliklarida urchitilayotgan dag'al junli maxalliy sovliqlarini Amerika rembulesi, prekos, askaniya xamda groznen zotlari ko'chqorlari bilan murakkab chatishtirib ularni duragaylarini tanlash va saralash ishlarini olib borilishini xamda oziqlantirishini yaxshilash natijasida olingan. Qo'chqorlarni tirik vazni 100-110 kg, jundorligi 10-12 kg, sovliqlarni vazni 55-60 kg, jun qirqimi 4-6 kg. Junining uzunligi 8-8,5 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatga teng. Serpushtligi 130-140% tashkil etadi. Bu zot Rossiya Federatsiyasini Krasnoyarsk o'lkasi xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Janubiy Qozoqi mayin junli jun-go'shtdor zoti 1944-1966 yillarda Jambul, CHimkent va Kizil-O'rda viloyatlari xo'jaliklaridagi urchitilayotgan qozoqi dumbali sovlivlarini kavkaz, stavropol, groznen va oltoy zotlari qo'chqorlari bilan qayta murakkab chatishtirish usulida olingan. Qo'chqorlarni tirik vazni 80-100 kg,

jundorligi 10-12 kg, sovliqlarni vazni 45-55 kg jundorligi esa 3,5-4 kg, junlarini uzunligi 7-9 sm. ingichkaligi esa 64 sifatga to'g'ri keladi. Bu qo'ylarni serpushtligi 140-145% bo'lib asosan Qozog'istonning Jambul, CHimkent va Kizil-Orda viloyatlari xo'jaliklarida urchitilmoqda.

Janubiy Ural mayin junli jun-go'sht yo'nalishidagi zot 1948-1068 yillari Rossiya Federatsiyasini Orenburg viloyati xo'jaliklarida urchitilayotgan dag'al junli sovliqlarni oldin prekos zotini qo'chqorlari bilan so'ng esa ularni urg'ochi duragaylarini kavkaz, oltoy, stavropol, groznen va yangi kavkaz zotli qo'chqorlari bilan murakkab chatishtirish natijasida vujudga kelgan. Qo'chqorlarni vazni 80-90 kg, jundorligi 10-12 kg, sovliqlarni vazii 45-50 kg, jundorligi esa 4,5-5 kg, junlarni uzunligi 8-10 sm, ingichkaligi bo'yicha 64 sifatga teng. Bu zotning serpushtligi 115-125% bo'lib asosan Rossiya Federatsiyasini Orenburg viloyati xo'jaliklarida ko'paytirilmoqda.

SHimoliy qozoqi mayin junli jun-go'shtdor zoti Qozog'iston Respublikasining Pavlodar, Semipalatinsk va Kustanay viloyatlaridagi YAngikavkaz, Mozaev qo'ylari va maxalliy dag'al junli qo'ylarini bir-biri bilan chatishtirish natijasida yaratilgan bo'lib 1976 yilda zot deb tasdiqlangan. qo'chqorlarni tirik vazni 100-110 kg, jundorligi 13-15 kg, sovliqlarning vazni esa 55-60 kg, jundorligi 6-7 kg, junlarini uzunligi 9,0 - 9,5 sm tashkil etadi, yo'g'onligi esa 64 sifatga teng bo'lib tolasining toza chiqimi 43-45%. Bu zotning serpushtligi 110-120%. Xozirgi davrda bu zot asosan Kozog'iston Respublikasining Pavlodar, Kustanay va Semipalatinsk viloyatlari xo'jaliklarida urchitilib kelinmoqda.

4. Mayin junli go'sht-jundor yo'nalishi guruhiga prekos, qozoqi mayin junli va arxaromerinosi, vyatskiy, dagiston, gruzin va volgagrad kabi zotlari kiradi.

Prekos zoti XIX asrni oxiri va XX asrni boshlarida Fransiya xududida urchitilayotgan rembule zotli qo'chqorlarini ingliz leyster zotli sovliqlari bilan chatishtirish natijasida yaratildi. Bu zot juda tez etiladi, qo'chqorlarni vazni 100-110 kg, jundorligi esa 8-14 kg, sovliqlarini vazni 55-60 kg, jundorligi 3,5-4,5 kg. Jun tolasini uzunligi 8-10 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatni tashkil etadi. Serpushtligi 125- 135%. Bu zot Rossiya Federatsiyaning Kursk, Bryansk, Voronej,

Omsk, Orenburg, Krasnoyarsk viloyatlarida xamda Ukraina va Belorussiya xo‘jaliklarida ko‘paytirilmoqda.

Qozoqi mayin junli go‘sh-t-jundor zoti 1931-1946 yillarda maxalliy qozoqi dumbali sovliqlarini prekos, askaniya, altay, kavkaz va groznen zotidagi qo‘chqorlari bilan murakkab chatishtirish natijasida olingan. Bu zotning asosiy kelib chikishi Alma-Ata viloyati xo‘jaliklaridir. Qo‘chqorlarini tirik vazni 90-120 kg, sovliqlarni vaznn esa 58-65 kg, junlarini miqdori qo‘chqorlarnikida 10-12 kg, sovliqlarni 4,5-5 kg, junlarini uzunligi 8-10 sm, yo‘g‘onligi esa 60-64 sifatga teng, serpushtligi 120-130%. Bu zot xozirgi davrda Alma-Ata viloyati xo‘jaliklarida ko‘paytirilib kelinmoqda.

Qozoq arxaromerinos zoti 1934-1950 yillarda Dog‘istonning sharkey tog‘li tumanlarida turlaroro chatishtirish igijasida vujudga kelgan (maxalliy mayin junli sovliqlarga yovvoyi arxarlarni urug‘i qo‘yilgan). Qo‘chqorlarni tirik vazni 90-115 kg, jundorligi 7-8 kg, sovliqlarni tirik vazni 55-65 kg, jundorligi 3,2-3,7 kg, junini uzunligi 7-12 sm, tolasining yo‘g‘onligi 64 sifatga teng. Bu qo‘ylar juda chidamli sharoitga tez ko‘nikadi xamda kam talabchan, serpushtligi 125-130% bo‘lib asosan Alma-Ata, Karaganda, Pavlodor viloyatlari xo‘jaliklarida ko‘paytiriladi.

Vyatskiy zoti 1956-1996 yillarida Rossiya Federatsiyasini Kirov viloyatini Nolinsk tumani va Gorkiy viloyatini Gorodetskiy tumani xo‘jaliklarida maxalliy shimoliy kalta dumli dag‘al junli sovliqlarni prekos va rembule qo‘chqorlari bilan chatishtirish natijasida olingan bo‘lib qo‘chqorlarni tirik vazni 80-85 kg, jun qirqimi 5,5-6 kg, sovliqlarni vazni 55-60 kg jundorligi 3-3,5 kg. Bu zotni jun tolasini uzunligi 8-9 sm, ingichkaligi esa 60-64 sifatga tengdir, serpushtligi 135-145% bo‘lib Kirov va Gorkiy viloyatlari xo‘jaliklarida urchitilmoqda.

Gruzin mayin junli, yog‘dor dumli go‘sh-t-jundor zoti 1939-1959 yillarda Gruziyani maxalliy dag‘al dumli sovliqlarinn sovet va kavkaz mayin junli qo‘chqorlari bilan qayta chatishtirish natijasida olingan. Qo‘chqorlarni tirik vazni 70-80 kg, jundorligi 6-8 kg, sovliqlari vazni 45-50 kg, jundorligi esa 3,5-4 kg, tabiiy uzunligi 7-9 sm bo‘lib yo‘g‘onligi esa 60-64 sifatga teng, serpushtligi 110-115% bo‘lib Gruziya xo‘jaliklarida ko‘paytirilmoqda.

Dog‘iston mayin junli go‘sh-t-jundor zoti 1928-1950 yillarda maxalliy dag‘al junli gubinsk sovliqlarini vyurtemberg qo‘chqorlari bilan chatishtirish natijasida olingan. Qo‘chqorlarni tirik vazni 80-90 kg, jundorligi 5-6 kg, sovliqlarni vazni 50-60 kg, jundorligi 3-3,5 kg, tolasini uzunligi 8-10 sm, ingichkaligi esa 60 sifatga geng, serpushtligi 130-135% tashkil etadi va Dog‘iston xo‘jaliklarida ko‘paytirilmoqda. Volgograd zoti 1932-1978 yillarda mahalliy dag‘al junli sovliqlari yangikavkaz va prekos zotlari qo‘chqorlaridan olingan duragay avlodlari kavkaz va grozniy zotlarini qo‘chqorlari bilan qayta murakkab chatishtirilishi natijasida yaratilgan. Qo‘chqorlarni tirik vazni 90-125 kg, jun qirqimi 12-14 kg, sovliqlarni vazni 50-60 kg, jundorligi 5-6 kg, tolasini uzunligi 8-9 sm, ingichkaligi 60-64 sifatga teng, serpushtligi esa 130-160% bo‘lib asosan Rossiya federatsiyasini Volgograd viloyati xo‘jaliklarida ko‘paytiriladi.

O‘zini tekshirish uchun savollar

4. Qo‘y junining guruhlari qaysilar va ta’rif bering?
5. Mainy va yarim mayin junning bir-biridan farqi nimadan iborat? Bu junlar qanday qo‘y zotlaridan olinadi?
6. Bir hil qoplamli va har xil qoplamli jun deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi jadvalni mavzu asosida to‘ldiring

Bir hil va har xil qoplamli junga qisqacha xarakteristika bering	Tola turlariga ta’rif bering	Mayin va yarim mayin junlar qaysi qo‘y zotidan olinadi

12-mavzu: YArim dag‘al va dag‘al junli qo‘y zotlarin o‘rganish

Darsning maqsadi. Mustaqil Hamdo‘stlik Respublikalarida va O‘zbekistonda urchitilayotgan va yarim dag‘al va dag‘al qo‘y zotlarini kelib chiqish tarixi.

Dars uchun kerakli jihozlar. Urchitiladigan qo'y turlari, avlodlari tulumlarhamda naslchilik kitoblari va bu qo'y zotlarining suratlari, hamda albomlari.

Darsning mazmuni: YArim dag'al va dag'al qo'y zotlarini bir necha tiplari mavjud va bu tiplar o'zini qaysi bir ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farqlanadi. SHu boisdan bu qo'ylar jun mahsuldorligi bo'yicha qo'ydagicha bo'linadi. YArim dag'al va dag'al jun beruvchi zotlar bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda va MDHdagi mavjud turlarning kelib chiqishi uzoq tarixga ega bo'lib, ayrim zotlarni hisobga olmaganda, respublikamizda urchitiladigan zotlar qadimiy zot hisoblanadi.

Qorako'l qo'y

Qorako'l qo'yi O'rta Osiyo – aynan O'zbekistonning tarixiy qo'y zoti bo'lib, er yuzidagi mavjud qo'y zotlari ichida mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha, ya'ni terisi bo'yicha yuqori o'rinlardan birida turadi.



Bu qo'ylarga 3 ta konstitutsii tipi xos bo'lib, bulardan:

4. Mustahkam (g'o'zamoy)
5. Dag'al (oq-gul)
6. Nozik (nozikga va nimjon nozik) turlariga bo'linadi.

Mustahkam konstitutsiyali: bu qo'ylarning juni uzunligi (4-14 sm) bo'lib, o'rtacha 8 sm bo'ladi. Bu qo'ylarning tanasi proporsional rivojlangan, qo'ylar juda harakatchan bo'ladi. mustahkam konstitutsiyasi qo'ylardan eng qimmatbaho terilar, ya'ni guli loviyasimon va qalamigulli qo'zi terilari olinadi.

Bu qo'ylarning qo'zilarining og'irligi 4-6 kg bo'ladi. jun qoplami kositsali bo'lmb, har qirqimda 1,5-2,5 jun olinadi.

Dag'al konstitutsiyali qo'ylar. – bu qo'ylarning tana tuzilishi qo'pol bo'lib, tanasining a'zolari bir-biri nomunosib holda joylashgan, ya'ni suyaklarining bo'rtib chiqishi, boshlarining haddan tashqari katta ekanligi, terisining qalinligi

bilan boshqa turlardan farq qiladi. Bu tipga mansub qo'ylarning juni 3 sinfga xos bo'lib, jun tolasi uzunligi 6-14 sm, o'rtacha 9 sm bo'ladi. Bu qo'ylarning qo'zilaridan kam baholi terilar olinadi. Chunki olingan terilarning guli yirik va ayrimlariniki ochiq shaklda bo'ladi. dag'al konstitutsiyali qo'y qo'zilarining og'irligi 6 kg va undan ortiq bo'ladi. Jun mahsuloti mustahkam konstitutsiya tuzilishga ega bo'lgan qo'ylarnikidan yuqori bo'ladi.

Nozik konstitutsiya tipli qo'ylar. Bu tipga xos mazkur qo'ylar 2 ta kichik tipga bo'linib:

7. Nozik

8. Qirriq

Nozikcha tipdagi qo'ylarning suyaklari silliq, terisi yumshoq va silliq, juni quyuk, lekin kalta jun tolalaridan iboratdir. Jun qoplami tarkibida oraliq va tivit tolalar mavjud.

Qirriq tipga xos qo'ylarning jussasi kichik, jun tolalari juda qisqa, ko'kraklarining chuqurligi va kengligi yuqoridagi turlarnikiga nisbatan past ko'rsatkichga ega. Bu tipga xos qo'ylarni juni kalta bo'lganligi sababli ayrim hollarda 2-chi marta qirqilmaydi.

Bu qo'ylardan olingan qo'zilar juda nozik bo'lib, teri sathi kichik terilarnikiga ayrim hollarda brak terilar qatoriga kiradi. Teri gullarining o'lchami mayda gullarga xosdir.

Qo'chqorlarining og'irligi 70-80 kg, qo'ylariniki 45-50 kg. YA'ni tug'ilgan qo'zilarining o'rtacha og'irligi 4-4,5 kg dir. Juni yiliga 2 marta qirqiladi. Bahor va kuz oylarida bo'lib, bahor oyidagi junnning ko'lami kuz oyidagiga nisbatan ko'p bo'ladi.

O'zbekiston go'shtdor yog'dor qo'y zoti. Bu qo'y zotlarining ichida eng yirigi hisoblanib, bu zotlarning kelib chiqishi qadimiy tarixni o'z ichiga olib, Tojikiston respublikasidan mahalliy dumbali qo'ylarni xalq seleksiyasi orqali keltirib chiqarilgan.

Bu qo'ylarning ko'pchiligi mustahkam tipga xos bo'lib, qo'chqorlarining o'rtacha og'irligi 135-145 kg, yiriklariniki 160-190 kg. Qo'ylarning og'irligi 70-

80, yiriklariniki 100-120 kg tug'ilgan qo'zilarning o'rtacha og'irligi 5-7 kg. Bu qo'ylarning serpushtligi 100 ta qo'yga 110-120 ta qo'zi to'g'ri keladi.

Qo'ylarning dumbasining og'irligi 15-25 kg, ayrim hollarda 35-45 kg ni tashkil etadi.


Juni dag'al bo'lib, tarkibida 40-70% tivit, 13-30% oraliq tola, 18-38% qiltiq, o'lik tolalar mavjud.

O'rtacha jun qirqimi 1,5-2 kg, junining chiqimi 60-70% ni tashkil etadi.

Bugungi kunda eng yirik mahsuldorligi bo'yicha yuqori o'rinda turadigan hisori qo'ylari "Hisor" naslchilik zavodida ko'paytirilmoqda (Tojikiston Respublikasida va O'zbekiston Respublikasida "Boysun" naslchilik zavodida). Go'shtdor yog' qo'y zotiga jaydari qo'y zoti ham kiradi.

Siroji – tojik zotlari

Siroji qo'y zoti Turkmanistonda xalq seleksiya tomonidan chiqarilgan bo'lib, go'sht va jun mahsuloti bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega. Siroji qo'ylarning qo'ychilik mustahkam konstitutsiya tuzilishiga ega bo'lib, suyaklari mustahkam va yaxshi rivojlangan, ko'kragi keng va chuqur, orqa qismi to'g'ri va enli, qo'chqorlarining og'irligi 80-85 kgni, sovliq qo'ylarniki 55-60 kg ni tashkil etadi.



Tug'ilgan qo'zilarning og'irligi 4,5-5,5 kg bo'ladi. bu zotning juni tarkibida tiviti bo'lib, jun qoplami 56-75% ni tashkil etadi. tivitning uzunligi 6-8 sm, jun qoplamida 4-18% qiltiq tola bor. Jun chiqimi 55-60%, junning rangi oq, yaltiroqligi yaxshi. Siroji qo'yining jun qirqimi bir qirqimda 3,5-4 kg ni tashkil etadi.

Tojik qo'y zoti

Bu zot 1947-1963-yillarda Tojikistonning Dagana-KIIKS tajriba xo'jaligida chiqarilgan.

Tojik qo'y mustahkam konstitutsiyaga ega bo'lib, dumbasi ko'tarilgan, qo'chqorlarining og'irligi 120-130 kg, yiriklarniki 160 kg. Qo'ylarining o'rtacha og'irligi 90-120 kg. Bu qo'ylarning juni yarim dag'al jun bo'lib, rangi oq, yaltiroqligi kuchli. Tivitining uzunligi 10-11 sm, jun chiqimi 65-70%. Bu qo'y zotidan O'zbekiston respublikasida jaydari qo'ylar va ular ustida seleksiya ishlarini olib borishda foydalanilmoqda.

Jaydari qo'y zoti

O'zbekiston go'shtdor-yog'dor qo'y zotiga mansub bo'lib, mahsuldorligi bo'yicha Hisoni qo'yga yaqin turadi. Tanasi mutanosib rivojlangan. Suyaklari qattiq va mustahkam.

Bu qo'ylarning tusi qora, jigar-qo'ng'ir va ayrim hollarda oq rangda bo'ladi. Qo'chqorlarining og'irligi 70-80 kg. Qo'ylariniki 50-60 kg.

Jun qoplamida tivit mavjud bo'lib, 45-60% tivit, 7-18% oraliq tola, 20-26% qiltiq, 9-16 % o'lik tolalar mavjud.

Jun tolasining uzunligi 8-11 sm. Jun qoplami kokil tuzilishshga ega. Jaydari qo'yining mahsuldor zotlari Samarqand, Toshkent viloyatlarining naslchilik xo'jaliklarida etishtirilmoqda.

